

14-dars

Darsning mavzusi: Jarangli va jarangsiz undoshlar (35 – 37-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarning unli va undosh harflarning o'ziga xos xususiyatlari, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarga ega bo'lish; unli va undosh tovushlar talaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga ajratish va ko'chirishni, so'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilishni bilish: talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Kattalarga hurmatda bo'lish, ularni qadrlashga o'rgatish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish; kundalik faoliyatda mavzuga oid jadvallarni o'qiy olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlarni, kichik matnlarni, mavzu doirasidagi video va audio matnlarini tinglab tushuna olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi va "Qolipni to'ldiring" ta'limiy o'yini

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Maqtanma g'oz- hunaring oz.*

Uy vazifasini so'rash orqali o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimi aniqlanadi. Qo'shimcha savollar berilib, o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilarga taqdimot orqali mavzu tushuntiriladi.

Qoida bilan ishlash:

Undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangli va jarangsiz bo'ladi.

Jarangsiz undoshlar: *p, t, k, f, s, x, ch, sh, q, h*

Jarangli undoshlar: *b, d, g, v, z, g', j, j, l, m, n, r, y, ng*

Talaffuzida ovoz va shovqin ishtirok etgan undoshlar jarangli, faqat shovqinning o'zidan iborat bo'lgan undoshlar jarangsiz undoshlar deyiladi.

IV. Yangi mavzuni mutahkamlash:

Darslikda keltirilgan mashqlar bajartiriladi:

35-mashq. Bu mashq o'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlanadi. O'g'il bolalar va qiz bolalar guruhiga ajratiladi. O'g'il bolalar guruhi *ko'kka, maqtashlikka*, qiz bolalar esa *bolasan, so'zlaringga* so'zlarini tahlil qiladilar.

Maqtanchoqqa

Sen o'zingni o'zing

Ko'kka ko'tarma ko'p.

To'g'ri, o'zing juda yaxshi

Bolasan, xo'b.

Lekin seni boshqa birov

Maqtar bo'lsin.

So'zlaringga keksa-yu yosh

Mahtal bo'lsin.

Hayotda bir o'zing emas,

Qaraysanmi?

Hamma sevib maqtashlikka

Yaraysanmi? (Tolib Yo'ldosh)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni 5 bosqichda tahlil qiling:

1. So'zdagi tovush va harflar.
2. Unli va undosh tovushlar.
3. Jarangli undoshlar.
4. Jarangsiz undoshlar.
5. Bo'g'inlar.

O'quvchilarga yana ham aniq va tushunarli bo'lishi uchun quyidagi qoida ham o'rgatilib boriladi.

Talaffuzda ayrim soʻzlarning oxirida kelgan jarangli undosh oʻrniga uning jarangsiz jufti eshitiladi: *kitob, ozod, avlod, yalpiz.* **Bunday soʻzlar oxirida qaysi harf yozilishini aniqlash uchun shu soʻzning oxiriga unli harf qoʻshib aytiladi:** *kitob – kitobi, yalpiz – yalpizi*

Shundan soʻng, 36-mashq bajariladi.

Rost soʻz boʻlar, koʻpincha, achchiq,

Yolgʻon soʻzning tuzogʻidan chiq.

Haq soʻz uchun mayli-da, tiz choʻk,

Hushyor boʻlgin tilga, bolajon.

Koʻz ilgʻamas gʻovlar bor qancha,

Tubsiz oʻpqon, zovlar bor qancha.

Tish qayragan yovlar bor qancha,

Hushyor boʻlgin yoʻlda, bolajon.

Sheʼrdan faqat jarangli tovush bilan boshlanadigan soʻzlarni koʻchirib yozing.

Rost, boʻlar, yolgʻon, mayli, boʻlgin, bolajon, gʻovlar, bor, zovlar, yovlar, yoʻlda.

“Qolipni toʻldiring” taʼlimiy oʻyini. *Tovush-harf tahlili uchun qolip va soʻzlar yozilgan taratma materiallar oʻquvchilarga tarqatiladi. Qisqa vaqt ichida oʻquvchilar soʻzning tovush-harf tahlilini bajaradilar.*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida oʻquvchilar joriy darsda oʻzlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. Soʻngra dars davomida faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

37-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi taʼkidlanadi.